Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233 / E-ISSN: 2181–1237
Uzbekistan State World Languages University
2026 Vol. 1 No. M 2/1
LINGUISTICS
MAXSUS SON

Ruhshona Kuchkarova – talaba

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)
Email: kuchkarovaruxshona38@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0009-2371-9863

E’zoza Rahmatova – o‘qituvchi, ilmiy rahbar

LISONIY IDENTIKLIK VA MADANIY O‘ZLIK: GLOBALLASHUV SHAROITIDA TAHLIL VA PEDAGOGIK IMPLIKATSIYALAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada globallashuv sharoitida lingvistik va madaniy identiklik oid qarashlar tahlil qilinadi. Xususan, ingliz tilining global muloqot vositasi sifatidagi o‘rni va uning shaxs shakllanishiga, ayniqsa ingliz tilini chet tili sifatida o‘rganuvchilar (EFL) orasida, ta’siri ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotda insonlarning ona madaniy qadriyatlari va global kommunikatsiya talablari o‘rtasida muvozanat saqlashi natijasida gibrid va dinamik identitet shakllanishi yoritiladi. Shuningdek, maqolada ushbu o‘zgarishlarning pedagogik jihatlari tahlil qilinib, til o‘qitishda madaniyatga yo‘naltirilgan yondashuvning ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Amaliy misollar orqali o‘qituvchilarning o‘quv jarayoniga madaniy komponentni integratsiya qilishi o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashi ko‘rsatiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, samarali til o‘qitish nafaqat lingvistik ko‘nikmalarni, balki madaniyatlararo kompetensiya, tanqidiy fikrlash va uyg‘un identitetni shakllantirishni ham o‘z ichiga olishi kerak. Shu tariqa, madaniy komponentni integratsiya qilish tilni chuqurroq tushunishga yordam beradi, madaniyatlararo to‘siqlarni kamaytiradi va ta’lim samaradorligini oshiradi. Bunday yondashuv o‘quvchilarning global jamiyatda erkin va samarali muloqot qilish qobiliyatini yanada rivojlantiradi hamda ularning dunyoqarashini kengaytiradi.

Kalit so‘zlar: lisoniy identiklik, madaniy o‘zlik, globallashuv, ko‘p tillilik, EFL, interkultural kompetensiya.

Ruhshona Kuchkarova – student
Uzbekistan State World Languages University (Tashkent, Uzbekistan)

Ezoza Rakhmatova – teacher, scientific supervisor

LINGUISTIC AND CULTURAL IDENTITY: ANALYSIS AND PEDAGOGICAL IMPLICATIONS IN THE CONTEXT OF GLOBALIZATION

Abstract. This article provides an in-depth IMRAD-based analysis of linguistic and cultural identity in the context of globalization, focusing particularly on how global forces reshape local identities. It examines the growing role of English as a global lingua franca and its influence on identity construction, especially among learners in English as a Foreign Language (EFL) setting. The study highlights how individuals negotiate between their native cultural values and the demands of global communication, leading to dynamic and hybrid identity formations. Furthermore, the article discusses the pedagogical implications of these transformations, emphasizing the need for culturally responsive teaching practices in EFL classrooms. Through practical examples, it illustrates how educators can integrate cultural awareness into language instruction to support learners’ identity

development. The findings suggest that effective language education should not only focus on linguistic competence but also foster intercultural understanding, critical thinking, and a balanced sense of identity in an increasingly interconnected world.

Key words: linguistic identity, cultural identity, globalization, multilingualism, EFL, intercultural competence.

Рухшона Кучкарова – студент
Узбекский государственный университет мировых языков (Ташкент, Узбекистан)

Эзоза Рахматова – преподаватель, научный руководитель

ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ И КУЛЬТУРНАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ: АНАЛИЗ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ В КОНТЕКСТЕ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Аннотация. В данной статье представлен подробный анализ языковой и культурной идентичности в условиях глобализации на основе структуры IMRAD. Особое внимание уделяется роли английского языка как глобального средства общения и его влиянию на формирование личности, особенно среди изучающих английский как иностранный язык (EFL). Исследование рассматривает, как люди балансируют между родными культурными ценностями и требованиями глобальной коммуникации, что приводит к формированию гибридной и динамичной идентичности. Кроме того, в статье анализируются педагогические аспекты этих изменений, подчеркивается важность культурно-ориентированного подхода в преподавании иностранных языков. На практических примерах показано, как преподаватели могут интегрировать культурный компонент в учебный процесс для поддержки развития личности учащихся. Результаты исследования свидетельствуют о том, что эффективное обучение языку должно включать не только развитие языковых навыков, но и формирование межкультурной компетенции, критического мышления и гармоничной идентичности в условиях глобального мира. Таким образом, интеграция культурного компонента в обучение способствует более глубокому пониманию языка, снижает межкультурные барьеры и повышает эффективность образовательного процесса в условиях глобализации.

Ключевые слова: языковая идентичность, культурная самобытность, глобализация, многоязычие, EFL.

KIRISH

Globallashuv XXI asrda til va madaniyat dinamikasini tubdan o‘zgartirayotgan murakkab va ko‘p qirrali ijtimoiy jarayon sifatida namoyon bo‘lmoqda. Axborot texnologiyalarining jadal rivoji, xalqaro migratsiya va global kommunikatsiya tarmoqlarining kengayishi natijasida turli tillar va madaniyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir sezilarli darajada kuchaydi. Ayniqsa, ingliz tilining global *lingua franca* sifatida shakllanishi uning nafaqat oddiy kommunikativ vosita, balki ijtimoiy kapital, bilimga kirish kaliti va shaxsiy hamda kasbiy muvaffaqiyat omiliga aylanishiga olib keldi. Shu sababli til masalasi endilikda faqat lingvistik hodisa emas, balki ijtimoiy, madaniy va psixologik jarayon sifatida ham qaralmoqda. Bu holat esa lisoniy identiklik va madaniy o‘zlik o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni yangicha yondashuv asosida o‘rganishni taqozo etadi.

Lisoniy identiklik tushunchasi zamonaviy sotsiolingvistika va psixolingvistika doirasida keng o‘rganilib, u shaxsning o‘zini til orqali anglash, ijtimoiy guruhga mansublikni his etish hamda madaniy qadriyatlarni ifodalash jarayonini qamrab oladi. Bu jarayon statik emas, balki doimiy o‘zgarishda bo‘lib, ijtimoiy muhit, ta’lim, madaniy tajriba va kommunikativ ehtiyojlar ta’sirida shakllanadi. Norton identiklikni ijtimoiy kontekstga bog‘liq dinamik konstrukt sifatida talqin qilib, til o‘rganishni “investitsiya” tushunchasi orqali izohlaydi (Norton, 2013). Ya’ni, o‘quvchi tilni o‘zlashtirish orqali nafaqat lingvistik bilimga ega bo‘ladi, balki yangi ijtimoiy tar-

moqlarga kirish, o‘z imkoniyatlarini kengaytirish va ijtimoiy mavqeini oshirish imkoniga ham ega bo‘ladi.

Globallashuv sharoitida ayniqsa ingliz tilini chet tili sifatida o‘rganuvchilar (EFL) orasida identiklikning transformatsiyasi yanada yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Ular bir vaqtning o‘zida bir nechta madaniy maydonlarda faoliyat yuritib, ko‘p qatlamli va gibrid identiklikni shakllantiradi (Kramsch, 1998). Bu esa ta’lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘yadi: o‘quvchilarning nafaqat til ko‘nikmalarini, balki interkultural kompetensiyasini ham rivojlantirish zarurati yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan, mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi globallashuv sharoitida lisoniy identiklikning transformatsiya jarayonini tahlil qilish, ayniqsa EFL kontekstida uning pedagogik implikatsiyalarini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

METODLAR

Ushbu tadqiqot sifat (qualitative) yondashuv asosida olib borilib, lisoniy va madaniy identiklikni chuqurroq anglashga qaratilgan bir nechta metodologik yo‘nalishlarni o‘z ichiga oldi. Dastlabki bosqichda asosiy nazariy tushunchalarni aniqlashtirish maqsadida ilmiy adabiyotlar keng qamrovda tahlil qilindi. Xususan, Norton, Block, Kramsch va Baker kabi olimlarning ishlari o‘rganilib, lisoniy identiklikning ijtimoiy-konstruktiv xarakterga ega ekani, ya’ni u ijtimoiy muhit, muloqot va tajriba asosida shakllanishi asoslab berildi. Mazkur bosqich tadqiqotning nazariy poydevorini yaratdi.

Ikkinchi bosqichda qiyosiy tahlil metodi qo‘llanilib, globallashuv jarayonining turli ta’lim tizimlariga ta’siri o‘rganildi. Turli mamlakatlar va ta’lim kontekstlarida ingliz tilining mavqei, uning o‘quvchilar til tanlash xulq-atvoriga ta’siri solishtirildi. Ayniqsa, ingliz tili ustunlik qilayotgan muhitlarda o‘quvchilarning ona tiliga munosabati, tilni qo‘llash chastotasi va kommunikativ ustuvorliklari tahlil qilindi. Bu orqali til siyosati va ta’lim amaliyoti o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlashtirildi.

Uchinchi bosqichda kichik miqyosdagi pedagogik kuzatuv amalga oshirildi. O‘zbekiston sharoitida boshlang‘ich va o‘rta yoshdagi o‘quvchilar bilan olib borilgan ingliz tili mashg‘ulotlari jarayonida ularning tilga bo‘lgan munosabati, motivatsiyasi, kod-almashinish (code-switching) holatlari hamda madaniy identifikatsiya ko‘rsatkichlari tizimli ravishda kuzatildi. Kuzatuv jarayonida o‘quvchilarning qaysi vaziyatlarda ingliz tilidan yoki ona tilidan foydalanishi, ularning nutqida madaniy elementlarning aks etishi kabi jihatlarga alohida e’tibor qaratildi.

Amaliy misollar sifatida storytelling asosidagi darslar, rol o‘ynash (role-play) faoliyatlari hamda “madaniy taqdimot” topshiriqlari chuqur tahlil qilindi. Ushbu metodlar orqali o‘quvchilarning tilni nafaqat kommunikativ vosita, balki madaniy ifoda shakli sifatida qabul qilishi, o‘z identikligini ingliz tilida namoyon etishi o‘rganildi. Natijada, qo‘llanilgan metodlarning o‘quvchilarning interkultural kompetensiyasini rivojlantirishdagi samaradorligi aniqlashtirildi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ingliz tilining global mavqeyi o‘quvchilarning lisoniy identikligiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, o‘quvchilar ingliz tilini “muvaffaqiyat tili” sifatida qabul qilib, unga yuqori motivatsiya bilan yondashmoqda. Bu holat Norton tomonidan ta’kidlangan “tilga investitsiya” konsepsiyasini tasdiqlaydi (Norton, 2013). Kuzatuvlar davomida o‘quvchilarda kod-almashinish hodisasi keng tarqalganligi aniqlandi. Masalan, o‘quvchilar kundalik suhbatda o‘zbek va ingliz tillarini aralashtirib qo‘llash orqali o‘zlarini ifoda etishga harakat qiladi: “Men today schoolga bordim va teacher bilan gaplashdim”. Bu holat ularning ikki tilli identiklik shakllanish jarayonida ekanligini ko‘rsatadi. Storytelling metodidan foydalanilgan darslarda esa yanada chuqurroq natijalar kuzatildi. Masalan, o‘quvchilarga “My favorite holiday” mavzusida ingliz tilida hikoya tuzish topshirilganda, ular Navro‘z bayrami haqida ingliz tilida gapirib, milliy madaniyat elementlarini global til orqali ifodalashga muvaffaq bo‘ldi. Bu esa “interkultural identiklik” shakllanishining yaqqol misoli sifatida baholanishi mumkin. YouTube mulohazalariga asoslangan yozma topshiriqlar ham yana misolki, bunda EFL talabalarida nafaqat lingvistik kompetensiyani rivojlantiradi, balki yozish jarayonidagi psixologik to‘siqlarni yengishga ham xizmat qiladi (Usubjonova, Gaybullayeva, 2026).

Shuningdek, loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning) metodida o‘quvchilar “Uzbek traditions” mavzusida prezentatsiya tayyor-

lab, ingliz tilida o‘z madaniyatini tushuntirishga harakat qilgan. Natijada ularning nafaqat til ko‘nikmalari, balki madaniy ong darajasi ham oshgan. Olingan natijalar zamonaviy lingvistik va pedagogik nazariyalar bilan mos keladi. Block identiklikni “ko‘p qatlamli va o‘zgaruvchan konstrukt” sifatida ta’riflaydi, bu esa tadqiqot natijalarida kuzatilgan ikki tilli va interkultural identiklik holatlari bilan uyg‘unlashadi (Block, 2007).

NATIJALAR

Tadqiqot natijalarida ham o‘quvchilar ingliz tilini o‘rganish orqali o‘z madaniyati va global madaniyat o‘rtasida yangi identifikatsion makon yaratayotganligi kuzatildi. Biroq, ushbu jarayonda muayyan xavflar ham mavjud. Xususan, ingliz tilining haddan tashqari ustunligi milliy tilga bo‘lgan e’tiborni kamaytirishi mumkin. Shu sababli pedagogik yondashuvlar muvozanatli bo‘lishi lozim.

EFL ta’limida quyidagi madaniyatga integratsiyalashgan o‘qitish, interkultural kompetensiyani rivojlantirish, lokal kontentdan foydalanish, hamda reflektiv fikrlashni rag‘batlantirish yondashuvlar samarali deb hisoblanadi. Masalan, o‘quvchilarga “Describe your national dish in English” topshirig‘ini berish orqali ular o‘z madaniyatini global til orqali ifodalashga o‘rganadi. Bu esa identiklikni yo‘qotmasdan global integratsiyani ta’minlaydi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, globallashuv sharoitida lisoniy identiklik murakkab, ko‘p qatlamli va doimiy rivojlanib boruvchi jarayon hisoblanadi. U nafaqat tilni o‘zlashtirish, balki madaniy qadriyatlar, ijtimoiy tajriba va shaxsiy o‘zlikni anglash bilan chambarchas bog‘liqdir. Ingliz tilining global miqyosda keng tarqalishi o‘quvchilarga xalqaro muloqotga kirishish, bilim almashish va kasbiy rivojlanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, bu jarayon milliy madaniy o‘zlikni saqlash, uni anglash va qadrlash zaruratini yanada kuchaytiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy o‘quvchilar orasida ko‘p tillilik asosida shakllanayotgan interkultural identiklik ustun bo‘lib, ular turli madaniyatlar o‘rtasida moslashuvchanlik bilan harakat qila oladi.

Shu asosda ta’lim jarayonida ingliz tilini o‘qitishda muvozanatli va ongli yondashuvni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, dars jarayoniga milliy madaniyat elementlarini (adabiyot, urf-odatlar, an’analar) tizimli ravishda integratsiya qilish o‘quvchilarning o‘z ildizlariga bo‘lgan hurmatini mustahkamlaydi. Interkultural kompetensiyani rivojlantirish uchun taqqoshlash, muhokama va tahlilga asoslangan topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi. Zamonaviy pedagogik metodlar: storytelling, role-play, debatlar, loyiha asosida o‘qitish (project-based learning) o‘quvchilarning faolligini oshirib, ularning til va madaniyatni chuqurroq anglashiga yordam beradi.

Bundan tashqari, o‘quvchilarga o‘z milliy madaniyatini ingliz tilida erkin ifodalash imkoniyatini yaratish, masalan, taqdimotlar, esse yozish yoki madaniy loyihalar orqali, ularning identiklikni anglash jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi. O‘qituvchilarning metodik va interkultural tayyorgarligini oshirish, zamonaviy resurslar va texnologiyalardan samarali foydalanish ham muhim omillardan biridir. Umuman olganda, bunday yondashuv lisoniy identiklikni nafaqat saqlash, balki uni boyitish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Block, D. (2007). *Second language identities*. Continuum.
2. Crystal, D. (2003). *English as a global language* (2nd ed.). Cambridge University Press.
3. Kramsch, C. (1998). *Language and culture*. Oxford University Press.
4. Norton, B. (2013). *Identity and language learning: Extending the conversation* (2nd ed.). Multilingual Matters.
5. qizi Usubjonova, S. V., & qizi Gaybullayeva, D. F. (2026). The effect of YouTube comment-based writing tasks on writing proficiency and writing anxiety among Uzbek EFL learners: a quasi-experimental study. The Lingua Spectrum, 3(1), 488-493.